

**Sunnatova Madina G’ofurjon qizi**  
**Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi**  
**mutaxassisligi magistranti**  
**sunnatovamadinka@gmail.com**

---

## **RAQAMLI MAKONDA DAVLAT XIZMATI AMALGA OSHIRISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kundagi raqamlashtirish sharoitida davlat xizmatlarining ko’rsatilishi, ularning roli, foydalanish statistikasi, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishga tushirilgan xizmatlar ko’lami kabi masalalar o’rganildi. Shuningdek, mavjud muammolar ko’rsatilib, kerakli tavsiyalar berildi.

**Kalit so’zlar:** Davlat xizmati, raqamlashtirish, yagona interaktiv davlat xizmatlari portal, elektron raqamli imzo, davlat xizmatlari reestri.

---

**Kirish.** Butun jahon hamjamiyatining va davlatlarning rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri axborot makonining faol va jadal rivojlanishi hisoblanadi. Davlat boshqaruvi sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining yuqori samaradorligini, shaffofligini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatlari sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi. Davlat xizmati eng muhim ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Bir tomondan, u har bir shaxsning davlat manfaatlariga ta’sir qiladi va o’z ahamiyatiga ko’ra fuqarolikning konstitutsiyaviy va huquqiy institutiga mos kelishi mumkin, chunki u davlat va shaxs o’rtasidagi munosabatlarga qaratilgan. Boshqa tomondan, davlat xizmati davlat faoliyatini ta’minlashning kundalik vositasi, uning samarali ishlashini ko’p jihatdan belgilay oladigan tarkibiy qism deb ayta olamiz. Davlat xizmati — davlat boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari tomonidan ariza beruvchilarning so’rovlari bo’yicha, shu jumladan bildirish tartibida, ushbu organlar va tashkilotlarning belgilangan vakolatlari doirasida xizmatlar ko’rsatish bo’yicha amalga oshiriladigan, ariza beruvchilarning O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishini ta’minlashga doir faoliyatdir.<sup>1</sup>

**Asosiy qism.** Raqamlashtirish zamonaviy davlat boshqaruvining qiyofasini sezilarli darajada o’zgartirdi. Bu davlat boshqaruvi tarixidagi yangi bosqich – elektron hukumat davri haqida gapirishga asos bo’ldi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda davlat xizmatlarining aksariyati, shuningdek, davlat boshqaruvining ko’plab ichki tashkiliy jarayonlari elektron formatga o’tkazilmoqda. Davlat organlarining integratsiyalangan ma’lumotlar bazalarini yaratish foydalanuvchilarni elektron identifikatsiyalash bilan uyg’unlashgan holda zamonaviy davlat boshqaruvini iste’molchi va davlat xizmatlarini ko’rsatuvchi o’rtasidagi masofa minimal darajaga tushiriladigan tarmoq tuzilmasiga aylantiradi, xizmatlar ko’rsatish jarayonini esa imkon qadar tezlashtiradi. Bir qator olimlarning fikricha, elektronlashtirish nafaqat davlat boshqaruvi rivojlanishidagi mustaqil tendensiya, balki AKT imkoniyatlarisiz ancha sekin shakllangan boshqa barcha tendensiyalar uchun ham muhim shartdir. Har kuni minglab fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari muayyan davlat xizmatlarini olish uchun davlat organlariga murojaat qilmoqda. Buni tushuntirish uchun statistikaga murojaat qilaylik. O’zbekistonda har yili:

---

<sup>1</sup> Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari Yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to’g’risida Nizom. URL: [http://nics.gov.uz/uz/public\\_authorities/inventory/388/](http://nics.gov.uz/uz/public_authorities/inventory/388/)

- Har yili 2 million kishi pensiya oladi, bu esa yildan-yilga ko'payib bormoqda;
- 700 mingdan ortiq bola tug'iladi, ularga tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar beriladi;
- 630 mingdan ortiq bola umumta'lim maktablariga boradi;
- 600 mingdan ortiq abituriyent respublika oliy o'quv yurtlariga hujjat topshiradi;
- 550 mingga yaqin kishi maxsus ijtimoiy nafaqa oladi;
- 300 mingga yaqin nikohlar FHDYo organlarida qayd etiladi va boshqalar.<sup>2</sup>

Bularning barchasi davlat xizmatlariga misoldir. Shunday qilib, davlat xizmatlarining institut sifatidagi mazmuni aholi va tadbirkorlik subyektlariga turli imtiyozlar, huquq va imtiyozlar berish bilan bog'liq davlat boshqaruvining eng muhim bo'g'inini yangi asosda qayta tashkil etishdan iboratligi ayon bo'ladi. Fuqarolarga onlayn tarzda ariza topshirish va xizmatlarni olish, ma'lumotlar, ariza topshirish va shu kabi xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratish axborotlashgan jamiyat omillaridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 23 avgustdagi 181-son qarori bilan "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv davlat xizmatlari to'g'risida nizom"<sup>3</sup> va "Bazaviy interaktiv davlat xizmatlari reestri" tasdiqlangan. Ushbu Nizom davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda xizmatlarni ko'rsatish tartibi va shartlarini belgilaydi.

Davlat xizmatlarining asosiy tamoyillari haqida gapirib o'tadigan bo'lsak, ular bir nechta jihatlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqaro e'tibor markazida. Bu tamoyil davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi undan foydalanuvchi uchun maksimal qulaylik yaratgan holda yo'lga qo'yilishini nazarda tutadi. Bu, o'z navbatida, davlat xizmatlarini joriy etish va takomillashtirishda foydalanuvchilarning faol ishtirokini ham taqozo etadi.

Ikkinchi, kam xarajat bilan yuqori ijtimoiy qiymat yaratish. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarning ehtiyojlari yuqori darajada qondirilishini ta'minlash uchun davlat ilg'or boshqaruv texnologiyalaridan, davlat-xususiy sheriklik va bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan samarali foydalanishi zarur.

Uchinchi, davlat xizmatlarini innovatsion rivojlantirish. Davlat xizmatlari tizimida innovatsiyalarni joriy etish, sifatni monitoring va nazorat qilish, o'z vaqtida tezkor tuzatishlar kiritish mexanizmi qo'llanilishi kerak.

To'rtinchi, huquqiy aniqlik va xavfsizlik. Davlat xizmatlarini ko'rsatish qonun asosida, ma'muriy tartib-taomillarga muvofiq hamda tegishli qarorlar va xatti-harakatlarning qonuniyligi ustidan nazoratning ishonchli kafolatlari bilan amalga oshirilishi lozim.

Hozirgi kunda yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ishga tushirilgan xizmatlar 616 tani tashkil etmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra:

- Yagona portaldan tushgan arizalar: 9,4 million
- Davlat xizmatlari markazlaridan: 2,5 million

---

<sup>2</sup> Хамедов И.А. Актуальные вопросы развития института государственных услуг в Узбекистане. - Ташкент: Baktria press, 2016. – с 4.

<sup>3</sup> O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-1240500?ONDATE=23.08.2007>

- MyGov mobil ilovasidan tushgan arizalar: 1,1 million
- Pochta kabinetidan tushgan arizalar: 38941
- consul.gov.uz orqali tushgan arizalar: 2087
- Barcha arizalar: 13,2 millionni tashkil qilmoqda. <sup>4</sup>

Shuningdek, hujjatni tasdiqlashning asosiy elementlaridan biri bu imzodir. Hujjatlarni raqamlashtirish bilan birgalikda elektron raqamli imzo yaratildi. Bu an'anaviy imzoning muqobil varianti bo'lib, elektron hujjatlarni imzolash va haqiqiylikini tekshirishda shaxsni tasdiqlash uchun ishlatiladi. Elektron raqamli imzo vaqt va pulni sezilarli darajada tejaydi hamda ikki yil muddatga beriladi. Elektron raqamli imzo davlat xizmatlarining barcha turlariga masofadan kirishni ta'minlaydi va hujjatlarning haqiqiylikiga kafolat bo'lib xizmat qiladi hamda qalbakilashtirishdan himoya qiladi. Elektron raqamli imzoni uchta usulda olish mumkin:

- davlat xizmatlari markazida;
- masofadan (onlayn):
- yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida;
- Elektron raqamli imzo ro'yxatga olish markazining rasmiy veb- saytida - e-imzo.uz.<sup>5</sup>

“Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi qonun<sup>6</sup> 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan, u elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo va qog'ozdagi o'z qo'li bilan qo'yilgan imzoning tengligini tan olish shartlarini belgilaydi.

Shunday qilib, elektron davlat xizmatlari barcha darajadagi davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro tushunishni oshiradi. “Elektron hukumat” tizimidan foydalanish bir qator xarajatlarni kamaytiradi, masalan, geografik joylashuvi, vaqtiga qaramay, davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi, shuningdek, korrupsiya darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, boshqa tahdidlar ham paydo bo'ladi, misol uchun shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, shuningdek, ma'lumotlarni yo'q qilish xavfi mavjud.<sup>7</sup>

Shu bilan birga, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi bir qator muammolar mavjuddir. Asosiy muammolardan biri sifatida mavjud davlat xizmatlarining katta qismi hamon elektron shaklda ko'rsatilmasdan an'anaviy shaklda aholiga taqdim etib kelinayotganini ko'rsatishimiz mumkin. Qolaversa, respublika miqyosida Internet tezligining pastligi hamda optik-tolali tarmoq chekka hududlargacha yetib bormaganligi elektron davlat xizmatlarining ko'rsatkichlari past darajada saqlanib qolishiga olib kelmoqda.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan “davlat xizmati” tushunchasiga berilgan ta'riflardan xulosa sifatida aytish mumkinki, davlat xizmatlarini O'zbekistonda davlat boshqaruviga joriy qilingan yangi institutdir. Raqamli makonda davlat xizmatidan foydalanish borasidagi qulayliklar kundan-kunga

---

<sup>4</sup> Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. URL: <https://my.gov.uz/oz/site/statistic-graph>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti. URL: <https://finlit.uz/uz/articles/remote-banking/electron-signature/>

<sup>6</sup> 12.10.2022 yildagi O'RQ-793-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-6234904>

<sup>7</sup> Садиков С.А. Формирование и развитие правовых основ системы “Электронное правительство” в Республике Узбекистан. Диссертация на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по юридическом науке. – Ташкент.2020. С 128.

ortib bormoqda. Biroq, hali hamon ko'plab muammolar mavjudligini inobatga olgan holda, davlat xizmatidan foydalanish uchun murojaat qilishning qulay usullarini yo'lga qo'yish, markazlar va YaIDXPga yangi xizmatlarni joriy etishdan oldin ularning tartib-taomillarini soddalashtirgan holda, asosan ma'lum bir hududda eksperiment tariqasida ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali tartibga solish va YaIDXPning mobil ilovasini takomillashtirish, ommabop xizmatlardan ushbu ilova orqali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davlat xizmatlari, shakllari va blankalari Yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risida Nizom.
2. Хамедов И.А. Актуальные вопросы развития института государственных услуг в Узбекистане. - Ташкент: Vaktria press, 2016. – с 4.
3. Садиков С.А. Формирование и развитие правовых основ системы “Электронное правительство” в Республике Узбекистан. Диссертация на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по юридическом науке. – Ташкент.2020. С 128.
4. Габуев С.В. Электронный государственные услуги в политико-админстративном управлении. - Политико и общество. - 2017. № 8. С 5-7.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti. URL: <https://finlit.uz/uz/articles/remote-banking/electron-signature/>

#### **Foydalanilgan internet resurslari:**

1. O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz>
2. BMTTD ning rasmiy sayti. URL: <https://www.undp.org/uz/>
3. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. URL: <https://my.gov.uz>